

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Sirdaryo viloyati doimiy aholisi soni 2022 yil 1 aprel holatiga 883,1 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 4,5 ming kishiga yoki 0,6 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 377,2 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,7 %), qishloq aholisi soni 505,9 ming kishini (57,2 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2022 yil yanvar-mart

- Aholi soni **4,5 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **5,4 ming nafarni** tashkil etdi.
- FHDYO bo'limlarida **1,3 mingta nikoh** va **0,4 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Sirdaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2022 yil yanvar-mart oylarida)



Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(2021-2022 yillar 1- aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

| | 2021 yil | 2022 yil* | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da |
|--------------------------|--------------|--------------|-------------------------------------------|
| Sirdaryo viloyati | 864,1 | 883,1 | 102,2 |
| Guliston sh. | 91,8 | 94,8 | 103,3 |
| Shirin sh. | 18,9 | 19,1 | 101,1 |
| Yangiyer sh. | 44,5 | 45,6 | 102,5 |
| tumanlar: | | | |
| Oqoltin | 53,1 | 54,2 | 102,1 |
| Boyovut | 132,8 | 134,5 | 101,9 |
| Guliston | 74,6 | 76,3 | 102,3 |
| Sayhunobod | 78,7 | 80,4 | 102,2 |
| Mirzaobod | 75,5 | 77,4 | 102,5 |
| Sardoba | 67,2 | 68,5 | 101,9 |
| Sirdaryo | 130,4 | 133,4 | 102,0 |
| Xovos | 97,4 | 99,3 | 102,0 |


*) dastlabki ma'lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2022-yil 1-aprel holatiga eng ko'p aholi soni Boyovut tumanida 134,0 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,2 % ni) va Sirdaryo tumanida 133,4 ming kishini (15,1 %), aksincha eng kam aholi soni Shirin shahrida 19,1 ming kishi (2,1 %) va Yangiyer shahrida 45,6 ming kishini (5,1 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2021 yilning mos davriga nisbatan Guliston shaharda 3,2 % ni, Mirzoobod tumanida 2,5 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Shirin shahrida 1,0 % ni tashkil etdi.

Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2022- yil 1- aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2022- yil 1- aprel holatiga, foizda , dastlabki ma'lumot)




Demografik holat

Jinsi bo'yicha doimiy aholi sonining bo'linishi (2022- yil 1- aprel holatiga, ming kishi, dastlabki ma'lumot)

| | erkak | ayol |
|--------------------------|--------------|--------------|
| Sirdaryo viloyati | 443,3 | 439,8 |
| Guliston sh. | 47,4 | 47,4 |
| Shirin sh. | 9,3 | 9,8 |
| Yangiyer sh. | 22,7 | 22,9 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Oqoltin | 27,3 | 26,9 |
| Boyovut | 68,1 | 66,4 |
| Guliston | 37,7 | 38,6 |
| Sayxunobod | 40,1 | 40,3 |
| Mirzaobod | 40,2 | 37,2 |
| Sardoba | 34,7 | 33,8 |
| Sirdaryo | 66,2 | 66,8 |
| Xovos | 49,6 | 49,7 |

Hududlar kesimida aholi zichligi (2022- yil 1- aprel holatiga, 1 kv kmga to'g'ri keladigan aholi)



Demografik holat


Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tug'ilish. 2022-yilning yanvar-mart oylarida 5,4 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 25,0 promilleni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 3,5 promillega ko'paygan (2021-yilning yanvar-mart oylarida 21,4 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2021-yilning mos davriga nisbatan Guliston shaharida (19,9 promilledan 60,2 promillega), Shirin shahrida (14,2 promilledan 18,7 promillega), Yangiyer shaharida (21,1 promilledan 31,0 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Oqoltin tumanida (23,3 promilledan 19,1 promillega), Mirzaobod tumanida (24,5 promilledan 18,3 promillega) qayd etildi.

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2022-yil yanvar-mart)



Demografik holat

Sirdaryo viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (yanvar-mart)


| | 2021-y. | 2022-y. | O'sish sur'ati %da |
|--------------------------|-------------|-------------|-----------------------|
| Sirdaryo viloyati | 4557 | 5422 | 119,0 |
| Guliston sh. | 449 | 1396 | 310,9 |
| Shirin sh. | 66 | 88 | 133,3 |
| Yangiyer sh. | 230 | 347 | 150,9 |
| tumanlar: | | | |
| Oqoltin | 305 | 255 | 83,6 |
| Boyovut | 697 | 624 | 89,5 |
| Guliston | 397 | 329 | 82,9 |
| Sayxunobod | 417 | 409 | 98,1 |
| Mirzaobod | 455 | 349 | 76,7 |
| Sardoba | 362 | 358 | 98,9 |
| Sirdaryo | 664 | 770 | 116,0 |
| Xovos | 515 | 497 | 96,5 |

Demografik holat

2022 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 64,3 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,7% tasodifiy zaxarlanish, 9,7% Neoplazmalar, boshqa kasalliklardan va jarohatlanishlardan, 16,1%, ovqat hazm qilish a'zolari, kasalliklaridan, 5,6 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 3,2 % yuqumli va parazit kasalliklardan 1,1 % vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 96 nafarni tashkil etib, ularning 62,8 % perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 32,6 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 4,7 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



Nikoh. 2022-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,3 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,2 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2021-yilning mos davriga nisbatan Guliston shaharida (161,6 %), Shirin shahar (168,2 %), ga sezilarli o‘sgan bo‘lib, aksincha eng yuqori kamayish sur‘atlari Sirdaryo tumani (81,0 %) ga to‘g‘ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2022-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 2,0 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2021-yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari Guliston shahriga (200,0 %), Shirin shahrida (320,0 %) va Sardoba tumanida (161,5 %) to‘g‘ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2022-yil yanvar-mart)

| | Nikoh tuzganlar | Nikoh koeffitsiyenti |
|--------------------------|-----------------|----------------------|
| Sirdaryo viloyati | 1338 | 6,2 |
| Guliston sh. | 278 | 12,0 |
| Shirin sh. | 37 | 7,9 |
| Yangiyer sh. | 84 | 7,5 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Oqoltin | 91 | 6,8 |
| Boyovut | 165 | 5,0 |
| Guliston | 89 | 4,7 |
| Sayhunobod | 88 | 4,5 |
| Mirzaobod | 100 | 5,3 |
| Sardoba | 97 | 5,8 |
| Sirdaryo | 183 | 5,6 |
| Xovos | 126 | 5,2 |

Demografik holat

Hududlar kesimida ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2022-yil yanvar-mart)

| | Ajrim | Ajrim koeffitsiyenti |
|--------------------------|------------|----------------------|
| Sirdaryo viloyati | 424 | 2,0 |
| Guliston sh. | 80 | 3,4 |
| Shirin sh. | 16 | 3,4 |
| Yangiyer sh. | 35 | 3,1 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Oqoltin t. | 29 | 2,2 |
| Boyovut t. | 66 | 2,0 |
| Guliston t. | 28 | 1,5 |
| Sayhunobod t. | 28 | 1,4 |
| Mirzaobod t. | 18 | 0,9 |
| Sardoba t. | 21 | 1,2 |
| Sirdaryo t. | 56 | 1,7 |
| Xovos t. | 47 | 1,9 |

Sirdaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-mart)

| | Tuzilgan nikohlar | | | Nikohdan ajralishlar | | |
|--------------------------|-------------------|-------------|---------------------|----------------------|------------|---------------------|
| | 2021-y. | 2022-y. | O'sish sur'ati % da | 2021-y. | 2022-y. | O'sish sur'ati % da |
| Sirdaryo viloyati | 1545 | 1338 | 86,6 | 303 | 424 | 139,9 |
| Guliston sh. | 172 | 278 | 161,6 | 40 | 80 | 200,0 |
| Shirin sh. | 22 | 37 | 168,2 | 5 | 16 | 320,0 |
| Yangiyer sh. | 106 | 84 | 79,2 | 25 | 35 | 140,0 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Oqoltin | 107 | 91 | 85,0 | 19 | 29 | 152,6 |
| Boyovut | 244 | 165 | 67,6 | 42 | 66 | 157,1 |
| Guliston | 126 | 89 | 70,6 | 28 | 28 | 100,0 |
| Sayxunobod | 139 | 88 | 63,3 | 21 | 28 | 133,3 |
| Mirzaobod | 128 | 100 | 78,1 | 21 | 18 | 85,7 |
| Sardoba | 106 | 97 | 91,5 | 13 | 21 | 161,5 |
| Sirdaryo | 226 | 183 | 81,0 | 48 | 56 | 116,7 |
| Xovos | 169 | 126 | 74,6 | 41 | 47 | 114,6 |

Migratsiya. 2022-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1,7 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 1,9 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 0,2 ming kishi bo'lib, 2021-yilning mos davrida minus 0,4 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

| | 2021 yil yanvar-mart | 2022 yil yanvar-mart |
|-----------------------------|-------------------------|-------------------------|
| Ko'chib kelganlar | 2,5 | 1,7 |
| Ko'chib ketganlar | 3,0 | 1,9 |
| Migratsiya saldosini | -0,4 | -0,2 |

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Guliston shaharida (minus 0,1 ming kishi), Shirin shaharida (minus 0,06 ming kishi) qayd etildi.

